

BRIFING



Termiz shahrida 37 ta mahallada 74 mlrd.so‘m mablag‘lar hisobidan quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

Ichki yo‘llar yangidan qurilish 42,3 km asfalt yo‘llar qurilishi rejalashtirilgan. Ushbu obyektlarga 5 ta pudratchi tashkilotlar birlashtirilgan bo‘lib, Bugungi kunda 25,6 km asfalt yotqizilib, 17,3 km yo‘llarga asfalt yotqizishga tayyorlandi.

Shahardagi 12 ta mahallalarda 18.6 km beton yo‘llar qurilishi rejalashtirilgan bo‘lib, hozirda 6 ta pudratchi tashkilotlar tomonidan 17,7 km da beton yo‘l ishlari yakunlangan.

Shuningdek, 22 ta mahallalarda 25,8 km piyodalar yo‘laklari rejalashtirilgan, shundan 5 ta pudratchilar tomonidan 23,2 km bajarildi.

O‘z navbatida, ichimlik suvi va oqova suv tarmog‘i obyektlari bo‘yicha 34 ta mahallalarda 27,5 km tarmoq tortish va 1 ta KNES o‘rnatish ishlari rejalashtirilib, 5 ta pudratchi tomonidan 22,4 km qurilish ishlari bajarilgan.

Shundan,

- Oqova suv obyektlari bo'yicha 8 ta mahallalarda 11,842 km tarmoq tortish va 1 ta KNES o'rnatish ishlari rejalashtirilgan, 5 ta pudratchi tomonidan 8,331 km qurilish ishlari bajarilgan.

Ko'p qavatli uylar bo'yicha mahallalarda 204 ta uylarning fasad qismi va uyning tom qismini ta'mirlash va kirish yo'laklariga yoritish tizimi o'rnatish ishlari amalga oshirilgan.

14 ta mahallalarda 16 ta Workout maydonchasi qurish rejalashtirilgan, 6 ta pudratchilar tomonidan 9 ta Workout qurish ishlari yakunlangan

Bundan tashqari shaharning markaziy ko'chalarida yoritish tizimi va sug'orish, ko'kalamzorlashtirish ishlari ham olib borilmoqda.

Termiz shahar hokimi O'.To'rayev